



**“KELISHILGAN”**

O‘zbekiston Respublikasi  
adliya vaziri

 R. Davletov



**“TASDIQLAYMAN”**

O‘zbekiston Respublikasi  
oliy va o‘rta maxsus ta’lim  
vaziri



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT ORGANLARI  
VA TASHKIOTLARINING JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING  
MUROJAATLARI BILAN ISH OLIB BORUVCHI XODIMLARI MALAKASINI  
OSHIRISHGA QO‘YILADIGAN DAVLAT TA’LIM TALABLARI**

Toshkent - 2022-yil

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT TALABLARI**

---

Davlat ta'lif talabi

### **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT ORGANLARI VA TASHKIOTLARINING JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI BILAN ISH OLIB BORUVCHI XODIMLARI MALAKASINI OSHIRISHGA QO'YILADIGAN DAVLAT TA'LIM TALABLARI**

**Rasmiy nashr**

Toshkent - 2022-yil

# **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT TA'LIM TALABLARI**

---

**Davlat organlari va tashkilotlarining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan  
ish olib boruvchi xodimlarini malakasini oshirishga qo'yiladigan  
DAVLAT TA'LIM TALABLARI**

**Rasmiy nashr**

**ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТРЕБОВАНИЯ  
к повышению квалификации сотрудников государственных органов и организаций,  
работающих с обращениями физических и юридических лиц**

**Официальное издание**

**STATE EDUCATIONAL REQUIREMENTS  
for continuous professional development of employees of state bodies and organizations  
handling appeals from individuals and legal entities**

**Official publication**

**Toshkent - 2022-yil**

---

**Kiritilish sanasi “ \_\_\_\_ ” 20 \_\_\_\_ yil**

## **SO‘Z BOSHI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqildi va TASDIQLASHGA taqdim etildi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan kelishilgan holda TASDIQLANDI.

Ushbu Davlat ta’lim talablarini O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

Kirish .....	6-bet
Qo‘llanish sohasi .....	7-bet
Tinglovchilarning malakasini oshirish tizimi tuzilmasi .....	7-bet
Malaka oshirishning turlari va shakllari .....	8-bet
Malaka oshirish bo‘yicha ta’lim dasturlariga qo‘yiladigan talablar .....	9-bet
O‘quv yuklamalarining hajmi .....	9-bet
Tinglovchilarning tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar .....	10-bet
Tinglovchilarning malakasini oshirish sifatini nazorat qilish va ta’lim muassasalari faoliyatini baholash .....	11-bet
Davlat ta’lim talablariga o‘zgartirish kiritish tartibi .....	11-bet
Yakuniy qoidalar .....	11-bet

## **Kirish**

1. O‘zbekiston Respublikasi davlat organlari va tashkilotlarining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ish olib boruvchi xodimlari (keyingi o‘rinlarda – Tinglovchilar)ning malakasini oshirishga qo‘yiladigan davlat ta’lim talablari O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limni standartlashtirish bo‘yicha hujjat hisoblanadi.

2. Davlat ta’lim talablari tinglovchilarning malakasini oshirish tizimiga qo‘yiladigan majburiy talablarni belgilaydi.

3. Davlat ta’lim talablari O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida ko‘zda tutilgan ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplarga muvofiq tinglovchilarning malakasini oshirishning maqsad hamda vazifalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

4. Davlat ta’lim talablari malaka oshirishning ta’lim dasturlarini, shuningdek o‘quv jarayonini, ta’lim sifatini nazorat qilish va baholash tartibini va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

## I. Qo'llanish sohasi

1. Davlat ta'lim talablari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi va uning filiallarida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi va uning filiallarida (keyingi o'rnlarda – Ta'lim muassasasi), tinglovchilarning malakasini oshirish bo'yicha ta'lim faoliyatini tashkiliy va ilmiy-metodik ta'minlash uchun qo'llaniladi.

2. Davlat ta'lim talablari quyidagilarni:

tinglovchilarning malakasini oshirish tizimi tuzilmasini;

tinglovchilarning malakasini oshirish turlari va shakllarini;

tinglovchilar tayyorgarligining zarur va etarli darajasi, shuningdek ularga qo'yiladigan umumiylak talablarini;

malaka oshirishning mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni;

malaka oshirish kurslari uchun o'quv yuklamalarning hajmini;

tinglovchilarning malakasini oshirish sifatini nazorat qilish va oliy ta'lim muassasalari faoliyatini baholashni belgilaydi.

## II. Tinglovchilarning malakasini oshirish tizimi tuzilmasi

3. Tinglovchilarning malakasini oshirish tizimi tuzilmasi:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi (keyingi o'rnlarda – **Vazirlik**);

O'zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hamda Toshkent shahar, tuman (shahar)lar hokimliklari (keyingi o'rnlarda – **Buyurtmachi tashkilot**);

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi va uning filiallari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish Markazi va uning filiallari (keyingi o'rnlarda – **Ta'lim muassasasi**).

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi:

davlat ta'lim talablarini tasdiqlaydi;

malaka oshirish kursining o'quv dasturlarini kelishadi.

5. Vazirlik:

ta'lim muassasasida tinglovchilarning malakasini oshirish faoliyatini takomillashtirish mexanizmlari va usullarini belgilaydi;

davlat ta'lim talablarini kelishadi;

malaka oshirish kursining o'quv dasturlarini tasdiqlaydi;

boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda tinglovchilarning malakasini oshirish yo'nalishida Ta'lim muassasasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash choralarini ko'radi;

Ta'lim muassasasida tinglovchilarning malakasini oshirish tizimiga umumiylak rahbarlik qiladi hamda bu faoliyatni takomillashtirish mexanizmlari va usullarini belgilaydi.

6. Buyurtmachi tashkilot:

tinglovchilarning malakasini oshirishga bo'lgan ehtiyojni aniqlaydi;

malaka oshirishga jalb etiladigan tinglovchilar kontingentini shakllantiradi;

yillik malaka oshirish kontingenti taqsimot-rejasini tasdiqlaydi;  
tinglovchilarning tasdiqlangan taqsimot-reja asosida malakasini oshirish uchun yuborishni ta'minlaydi.

#### 7. Ta'lim muassasasi:

ta'lim dasturlarining uzluksizligi va ketma-ketligini hisobga olgan holda tinglovchilarni o'qitish bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqadi;

umume'tirof etilgan xalqaro ta'lim standartlari va talablari, o'qitishning zamonaviy shakllari, ilg'or pedagogik, axborot-kommunikatsiya va innovatsiya texnologiyalari asosida tinglovchilarning o'quv jarayonini tashkil etadi;

tasdiqlangan reja-jadvalga asosan tinglovchilarning malakasini oshiradi;

o'quv kursining dasturiga mos ishlab chiqilgan o'quv-metodik resurslar asosida malaka oshirish kurslarini tashkil etadi;

tinglovchilarning malakasini oshirish bo'yicha xorijiy tajribani va ta'lim muassasalarining e'tirof etilgan yutuqlarini o'qitish jarayonida qo'llaydi, tahlil qiladi va umumlashtiradi;

tinglovchilarning uzluksiz malakasini oshirish jarayonlarini, shuningdek malaka oshirish kurslari o'quv jarayonining doimiy monitoringini yuritadi;

tinglovchilarning uzluksiz malakasini oshirish tizimidagi o'zlashtirish darajalariga mos ravishda malaka oshirish kurslaridan o'tishini nazorat qiladi va monitoringini olib boradi;

kurslar tugallangandan keyin yakuniy sinovlarni belgilangan tartibda tashkil etadi.

### III. Malaka oshirishning turlari va shakllari

8. Tinglovchilarning malakasini oshirish bevosita va bilvosita shakllarning o'zaro bir-birini to'ldirish tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

9. Malaka oshirishning **bevosita** shakli ishdan ajralgan holda ta'lim dasturlari asosida Ta'lim muassasasida to'g'ridan-to'g'ri (an'anaviy) o'qitish orqali amalga oshiriladi.

10. Ta'lim muassasasida o'qitish tegishli ixtisoslik yo'nalishlari bo'yicha ishlab chiqilgan malaka oshirish o'quv dasturlarini o'zlashtirishdan iborat.

Ta'lim muassasasida o'qitish 1+3, 2+2 yoki 3+1 sxemalari bo'yicha (tegishli ravishda 25, 50 yoki 75 % — mustaqil ravishda bilim orttirish, 75, 50 yoki 25 % — bevosita ta'lim muassasasida) masofaviy ta'lim yoki manfaatdor tashkilotlar bazasida yakka tartibdagi topshiriqlarni bajarish shaklida tashkil etilishi mumkin. O'qitishning bunday shakllari axborot uzatishning zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarini qo'llash imkoniyati mavjud bo'lgan taqdirda hamda o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan talablar asosida o'tkaziladi.

#### 11. Malaka oshirishning **bilvosita** shakllari:

**tinglovchining ish joyida o'qitish** — tinglovchining ishdan ajralmagan holda xizmat joyiga Ta'lim muassasasi tomonidan mutaxassislarni jalb etgan holda, tegishli o'quv dasturlarini o'zlashtirishdan iborat.

**masofaviy ta'lim** — tegishli soha mutaxassislarining kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan va masofadan o'qitishni amalga oshirishga mo'ljallangan maxsus ta'lim dasturlari orqali onlayn hamda oflayn tarzda o'rnatilgan tartiblarga muvofiq amalga oshiriladi.

12. Masofaviy ta'limning davomiyligi Ta'lim muassasasida o'qishning tegishli kursi akademik soatlarida belgilanadi, bunda kalendar muddatlari akademik muddatlardan ortiq bo'lishi mumkin.

#### **IV. Malaka oshirish bo'yicha ta'lim dasturlariga qo'yiladigan talablar**

13. Ta'lim muassasasining ta'limning tegishli turlariga bo'lgan ehtiyoji malaka oshirish yo'nalishi, darajasi, hajmi va mazmunini shakllantiradi, malaka talablarini olg'a suradi, ta'limning o'xhash texnologiya va shakllarini tanlashni taqozo qiladi.

Malaka oshirish tinglovchilarning kasbiy bilimlari va ko'nikmalarini yangilash va chuqurlashtirishga yo'naltirilgan.

Malaka oshirish sifati tinglovchilar tayyorgarligining zarur va yetarli darajasi, ularning bilimlari va amaliy mahoratlarining tinglovchilarga qo'yiladigan talablarga muvofiqligi bilan belgilanadi.

Malaka oshirish mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablar tegishli ta'lim dasturlari bilan belgilanadi.

14. Iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish davomida paydo bo'lgan yangi texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va ilm-fanning yutuqlarini amaliyatga joriy qilish maqsadida tinglovchilar o'zining malakasini muttasil oshirib borishlari zarur. Malaka oshirishda har bir tinglovchi o'zining kasbiy bilimi, ko'nikmasi va malakasini chuqurlashtirish va yangilab borish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Malaka oshirishning bevosita va bilvosita shakllarini o'zaro bir-birini to'ldirish tamoyillari asosida amaliyatga joriy etish orqali tinglovchilarning mustaqil o'zini o'zi shaxsiy va kasbiy rivojlantirish motivlarini rag'batlantirish, shuningdek o'quv jarayonini yuqori ilmiy-uslubiy darajada ta'minlash, o'quv dasturlari asosida soha yo'nalishiga oid kasbiy mahoratni doimiy ravishda rivojlantirishga ko'maklashish uchun zarur bo'lgan kasbiy bilimlar, ko'nikmalar va mahoratlarni muntazam ravishda yangilab borish uzlusiz malaka oshirish jarayonlarining maqsadi hisoblanadi.

15. Malaka oshirish bo'yicha ta'lim dasturlari mazmuniga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

tinglovchilarning tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarga muvofiqligi;

tinglovchilarning kasbiy bilimlari va ko'nikmalarini yangilash va chuqurlashtirishga yo'naltirilganligi;

malaka oshirish kurslari o'quv dasturlarining izchilligi hamda oliy ta'lim standartlari bilan o'zaro bog'liqligi;

o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari va vositalarini qo'llash;

malaka oshirishning belgilangan turlari va shakllariga muvofiqliligi.

#### **V. O'quv yuklamalarining hajmi**

16. Malaka oshirish tinglovchilar, agar normativ-huquqiy hujjalarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, har uch yilda kamida bir marta malakasini oshirishi shart.

Malaka oshirish kurslari tegishli yo'nalishlar bo'yicha malaka talablari, o'quv dasturlarini hisobga olgan holda tinglovchilarni sifatli o'qitish uchun moddiy-texnika bazasi, pedagoglar

tarkibi mavjud bo‘lganda kurslar faoliyatini va resurs ta’minotini budget va budgetdan tashqari moliyalashtirish asosida tashkil etiladi.

Malaka oshirish kurslari tinglovchilari to‘lov-shartnoma asosida o‘qitiladi.

Malaka oshirish kurslarida o‘qish Buyurtmachi tashkilot bilan kelishgan holda Ta’lim muassasasi tomonidan tasdiqlangan **12 soatdan kam bo‘limgan** hajmdagi o‘quv dasturlari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Malaka oshirishning bevosita shaklida bir kunlik auditoriya o‘quv yuklamasining eng yuqori hajmi 6 soatni tashkil etadi. Bilvosita shaklida esa bir kunlik auditoriya o‘quv yuklamasining eng yuqori hajmi 4 soatni tashkil etadi.

Malaka oshirish kurslarida o‘qish yakunlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘ta olmagan tinglovchilar bir oy muddatda malaka oshirish kurslarini takroran o‘zlashtirishi shart. Bunda takroran o‘qish asosiy ishdan ajralmagan holda kurslarning o‘quv dasturlarini mustaqil ravishda o‘zlashtirish asosida amalga oshiriladi.

Malaka oshirish kurslaridan takroran o‘tish ham **12 soatdan kam bo‘limgan** hajmda tashkil etiladi.

## **VI. Tinglovchilarning tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar**

17. Umumiy talablar tinglovchilarga qo‘yiladigan umumiy talablar quyidagilar hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunini bilishi va unga amal qilishi;

kasbiy layoqatning mavjudligi, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ish olib borish faoliyati yo‘nalishlarining ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini, kasbiy faoliyatini tashkil etish hamda amalga oshira ólishi;

murojaatlarni ko‘rib chiqish sohasidagi davlat siyosatining maqsad va vazifalari to‘g‘risida aniq tushunchalarni bilishi;

murojaatlar bilan ish olib borishning tashkiliy-huquqiy masalalari bo‘yicha tahliliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi;

murojaatlar bilan ishlash sohasidagi vaziyatni tizimli nazorat qila olishi va monitoring olib borish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

yuksak ma’naviy-ahloqiy sifatining mavjudligi;

maqsad va vazifalarni aniq shakllantira olishi, sohaga oid asosiy atamalar hamda tushunchalarini bilish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashni bilishi;

muntazam kasbiy o‘sishga, yangi bilimlarni egalashga tayyor bo‘lishi;

murakkab vaziyatlarda muzokara olib borish, qaror qabul qilish, o‘z qarorlari natijalarini bashorat qilish va baholash qobiliyatining mavjudligi.

## **VII. Tinglovchilarning malakasini oshirish sifatini nazorat qilish va Ta'lim muassasasi faoliyatini baholash**

18. Tinglovchilarning malakasini oshirish sifatini nazorat qilish va ta'lim muassasalari faoliyatini baholash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

**ichki nazorat** – Ta'lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladigan nazorat;

**yakuniy nazorat** - tinglovchilar uchun sinovlarni o'z ichiga oladigan nazorat;

**davlat-jamoat nazorati** - vakolatli davlat boshqaruv organlari, jamoat tashkilotlari va kadrlarning buyurtmachilari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat.

**tashqi nazorat** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladigan nazorat.

19. Ta'lim muassasasi faoliyatini baholash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

## **VIII. Davlat ta'lim talablariga o'zgartirishlar kiritish tartibi**

20. Davlat ta'lim talablariga mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollaridan, ta'lim muassasalarining ehtiyojlaridan, yangi pedagogik texnologiyalarni va o'qitishning noan'anaviy shakllarini rivojlantirishdan, rahbar va pedagog kadrlarning malakasini oshirish sohasidagi xalqaro ilg'or tajribalardan kelib chiqib o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish o'rnatilgan tartibda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

## **IX. Yakuniy qoidalar**

21. Mazkur davlat ta'lim talablarining amal qilish muddati – 5 yil.

**Kelishildi:**

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining  
ta'lim standartlari va normativ ta'minoti  
departamenti boshlig'i

S.Niyazbekov

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining  
Malaka oshirish va qayta tayyorlashni  
tashkil etish boshqarmasi boshlig'i

F.Esanboboev

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining  
Malaka oshirish va qayta tayyorlashni  
tashkil etish boshqarmasi bosh mutaxassisi

I.Eshmamatov

**Ishlab chiqildi:**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi  
qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish  
markazi direktori

Sh.Rabihev

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi  
qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish  
markazi direktorining birinchi o'rindosari

Sh.Saidov

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi  
qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish  
markazining Fan, innovatsiya va ta'lim  
dasturlarini ishlab chiqish bo'limi boshlig'i

Sh.Xasanov

**Ekspertizadan o'tkazildi:**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi  
huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish  
davlat inspeksiyasi bo'lim boshlig'i

B.Nazarov